

## BOSHQARUV TIZIMIGA ADASHIB KELIB QOLGANLARNI NIMA QILISH KERAK?

Ummatov Norqul To‘ychi o‘g‘li

Guliston davlat universiteti Yoshlar bilan ishslash, Ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi uslubchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7336376>

**Annotatsiya.** Ushbu maqola boshqaruv tizimiga tasodifan kirib qolganlarni va nima qilish kerak ekanligini va ularni hozirgi lavozimdan ozod qilish va o‘rniga boshqa rahbar qo‘yish yoki boshqaruv akademiyasiga o‘qishga yuborish, aks xolda ushbu fuqarolarga xizmat qilish tizimida turli muammolar paydo bo‘lishidan ko‘plab insonlar qiynalishlari mumkin. Bugungi kunda iqtisod bilan siyosat davlatning qanday darajada ekanini dunyo davlatlari orasidagi nufuzini ko‘rsatib beradi, shunday ekan har qanday fuqarolarga hizmat ko‘rsatadigan davlat tashkilotlariga boshliq bo‘lib kelayotgan shaxslarga be‘etibor bo‘lmasligi kerak, chunki har qanday davlat tashkilot davlatning iqtisodiy, siyosiy tizimiga ta’sir ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** boshqaruv akademiyasi , boshqaruv tizimi, davlat tashkiloti, dunyo davlatlari nufuzi, fuqarolarga xizmat.

### ЧТО ДЕЛАТЬ ЛЮДЯМ, КОТОРЫЕ ЗАПУТАНЫ С СИСТЕМОЙ УПРАВЛЕНИЯ?

**Аннотация.** В данной статье рассматривается, что делать с теми, кто не может понять в системе управления, освобождать их от занимаемых должностей и заменять другим руководителем или направлять на обучение в академию управления, иначе возникнут различные проблемы в системе управления, служба гражданам. В случае этого люди могут пострадать. Сегодня экономика и политика показывают уровень влияния государства среди стран мира, поэтому нельзя игнорировать людей, которые являются руководителями государственных организаций или те кто обслуживают каких-либо граждан, ведь любая государственная организация является экономической для государства и влияет на политическую систему.

**Ключевые слова:** академия управления, система управления, государственное устройство, влияние стран мира, служение гражданам.

### WHAT DO PEOPLE WHO ARE CONFUSED WITH THE CONTROL SYSTEM DO?

**Abstract.** This article is about what to do with those who have lost their way in the management system, release them from their positions and replace them with another leader or send them to study at the management academy, otherwise many people will face various problems in this system of serving citizens and they may suffer. Today, the economy and politics show the level of the state's influence among the countries of the world, so people who are the heads of state organizations that serve any citizens should not be ignored, because any state organization of economic state's affects the political system.

**Keywords:** academy of management, management system, state structure, influence of the countries of the world, service to citizens.

### KIRISH

Boshqaruv tizimiga tasodifan kelib qolganlarni nima qilamiz ishdan olib o‘rniga boshqasini qo‘yamizmi yoki boshqaruv akademiyasida yaxshi kadr qilib tayyorlab o‘qitamizmi? Agarda ishdan olib o‘rniga boshqa mutaxasisni qo‘ygan taqdirda ham, bo‘shagandan keyin, u yana bir bor imkoniyatlarini ishga solib davlat tashkilotiga ishga kirib va albatta avvalgi xolatni takrorlaydi. Uning o‘rniga kelgan xodim ham qanday yo‘l bosib kelganiga e’tibor bermasak, eski

xammom eski tosligicha qoladi. Oqibatda tashkilot rahbari almashtirib boriladi, ish sifati, samaradorligi ko'rinxmaydi va fuqarolar qynalib yurushadi. Demak, nima demoqchiman qaysiki tashkilot rahbari tez-tez almashayotgan bo'lsa o'sha tashkilot botqoqqa botib bo'lganini bildiradi. Chunki bir boshliqni ishini topib uni o'rganib endi moslashib o'z ishlarini boshlayman degancha albatta bizda tekshiruvchi tekshiruv ishlar olib boradi. Chunki bizda tekshiruv an'anaga aylangan. Chunki bunday narsalar kimningdir nufuzi, lavozimi oshishi uchun yokida shaxsiy manfaatlar uchun turli yo'llar bilan amalga oshiriladi. Albatta bu 100% demoqchi emasman.

## TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Ho'sh boshqaruv tizimida kadrlarga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni qanday to'ldiramiz? Bunda avvalo boshqaruv akademiyasida talim nufuzuni oshirish kerak kadrlarni yanada kuchli qilib tayyorlashni yo'lga qo'yish kerak. Akademiyaga kirishni bir muncha soddalashtirish lozim. Bitiruvchi talabalarini ish joylarini akademiyani o'zidayoq lavozimga tasdiqlab chiqarish lozim. Chunki akademiyani bitirgan lekin faoliyatni boshqaruv sohasida emas umuman boshqa sohada u faoliyat olib borishi kerak bo'lgan joyda umuman akademiya ko'rmagan boshqa bir nomzod kelib o'tirgan bo'ladi. Bunday noto'g'ri joylashuvlarni tuzatib nazorat qilishmiz kerak.

Barchamiz bilamizki bir davlatni tuzib uni mustaqil qilib xalqiga hizmat ko'rsatadigan davlat tashkilotlarini tashkil etib ularni bir-biriga o'zaro bog'lash va ularni faoliyatini nazorat qilish juda katta mashaqqat va mehnat talab qiladi. Shunday ekan davlat boshlig'inining mehnat faoliyati oson emasligini bilib olish qiyin emas. Davlat boshlig'inining olib borayotgan siyosati aniq va samaradorli amalga oshishi uchun davlat tizimidagi rahbar kadrlarining kim bo'lishi judayam muhim va amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlarni aniq va o'z vaqtida amalga oshishini taminlab beruvchi shaxslardir. Mabodo bir davlat tashkilotga umuman begona bo'lgan odam tanish-bilishi yoki turli yo'llar bilan kelib qolgan bo'lsa uning oqibatlari qanday bo'ladi? Ertami kechmi xodimlarning aksariyati o'z vazifalarini unitishadi hohlaganicha ishlay boshlaydi, ishning sifat va normalari buzilshiga olib keladi. Natijada fuqarolar o'zlarini faoliyat ko'rsatayotgan jamoat tashkiloti muammolarga duch keladi va tashkilotdan norozi bo'ladi va shu bilan birga davlatning ish tizimiga nisbatan ishonchsizlik paydo bo'ladi. Tashkilot boshlig'i o'zining loqaytligi va bu sohaga unda qobiliyat, harakat yo'qligi natijasida faqatgina o'z shaniga emas u o'tirgan lavozim, tashkilot xattoki davlat ishonchi shaniga ham dog' tushuradi.

## TADQIQOT NATIJALARI

Biz jamiyatni bunday illatlardan ozod qilish choralarini ko'rishimiz kerak sababi biz yashayotgan jamiyatda davlatning ertangi kuni, zero farzandlarimiz ulg'ayishmoqdalar. Lekin shuni aytib o'tish joyizki yuqoridagi nuqsonlarni tuzatmasak davlatning ertangi kuni yoshlарimizga jamiyatni ortiqcha qog'ozbozlik, behuda yugur-yugurlardan ozod qilmasak har bir mahallaga oliygoh qursak ham foydasi bo'lmaydi. Sababi ishlash tizimi betartib jamiyatini buzuq muhitda minglab oliyohlarda millionlab yoshlarni yetishtirsak ham sifatsiz kadrlar soni oshib boraveradi chunki yoshlarning ko'zlarini ochiq, qalbi qaynoq bo'ladi atrofga jamiyatga qarab moslashib boraveradi, bu esa kelajagi o'lib borayotgan davlatning fojiyasidir.

Yoshlar – xalqning asosiy tayanchi va suyanchi. Keng ko'lamli islohotlarni samarali amalga oshirishda ular hal qiluvchi kuch bo'lib maydonga chiqmoqda. Aynan zamonaviy bilim olgan, ilg'or kasb-hunarlarini, innovatsion texnologiyalarni, xorijiy tillarni puxta egallagan o'g'il-qizlar mamlakatni yanada taraqqiy ettirishda yetakchi o'rinn tutadi.

Yurtimizda yangicha dunyoqarash va fikrlashga ega yoshlarni tarbiyalab voyaga etkazish maqsadida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda yuqori bilim va malakaga ega bo‘lgan, raqobatdosh kadrlar tayyorlash maqsadida oliygohlar soni 141 taga etkazildi, 26 ta xorijiy oliy ta’lim muassasasining filiallari ochildi. Holbuki, 2016-yilda respublikamizdagи oliygohlarning soni 77 ta edi. Qisqa muddatda bu borada qariyb ikki barobar o’sishga erishildi.

## MUHOKAMA

Zero prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Yangi O‘zbekistonning nafasi, sur’ati va shiddatini avvalo aziz o‘g‘il-qizlarimizning azmu shijoati, dadil fikr va takliflarida, erishayotgan dastlabki yutuqlarida ko‘raman. Ishonchim komilki, farzandlari doimo izlanish va intilishda bo‘lgan, yuksak marralarni ko‘zlab, oldinga qarab intiladigan xalq va davlat o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarga albatta yetadi. Chunki bunday harakatlar ertaga qudratli to‘lqinga aylanib, hayotimizni bugun kechagidan, ertaga bugungidan yaxshi va obod qilish, ongu tafakkurimizni yuksaltirishga olib keladi”.

## XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki jamiyatdagi ayrim kishilar, davlatning ertangi kuni, kelajagiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan hislatlaringizdan vos keching, sababi bugunning ertasi bo‘ladigan jamiyatda xalqimiz qatori siz ham jondan aziz farzandlaringiz bilan birga yashaysiz.

## REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi hamda O‘zbekiston yoshlari forumida so‘zlagan nutqidan iqtiboslar. “Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik” kitobi. Toshkent 2021 y. “Tasvir” nashriyot uyi.